

## O'RTA ASRLARDA SAN'AT VA MADANIYATNING SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TOMONIDAN RIVOJ TOPISHI

**Abdullayeva Aziza**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'at instituti, 4-kurs Professional ta'lif (vokal ijrochiligi) yo'naliш talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqola, O'rta Asrlar sharq allomalari va mutafakkirlari tomonidan rivojlangan san'at va madaniyatning ahamiyatli jihatlarini o'rganadi. Sharq allomalari va mutafakkirlari, o'z doirasida madaniyat, falsafa, ilm-fan, san'at, din, adabiyot va boshqa sohalarda katta muvaffaqiyat qozongan mutafakkir va ilmiy odamlardir. Ular san'at va madaniyat sohasidagi rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatdilar va o'z vaqtida o'zlarining fikrlari va yutuqlari orqali yanada boyitishga yordam berdilar. Bu maqola ularga minnatdorlik, ularning fikrlari va yutuqlari o'z davrlarida va bugungi kun davom etayotgan san'at va madaniyatning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Sharq allomalari , mutafakkir, san'at va madaniyat, ilmiy tadqiqotlar, falsafa va ijodiylik, insoniy madaniyat

**Аннотация:** В статье рассматриваются значимые аспекты искусства и культуры, разработанные восточными учёными и мыслителями Средневековья. Ученые и мыслители Востока – это мыслители и учёные, добившиеся больших успехов в своей области культуры, философии, науки, искусства, религии, литературы и других областях. Они оказали большое влияние на развитие области искусства и культуры и помогли еще больше обогатить ее своими идеями и достижениями своего времени. Эта статья отдает им должное и подчеркивает значение их идей и достижений в свое время и в развитии искусства и культуры, которое продолжается и сегодня.

**Ключевые слова:** восточные учёные, мыслитель, искусство и культура, научные исследования, философия и творчество, человеческая культура.

**Abstract:** This article examines the significant aspects of art and culture developed by Eastern scholars and thinkers of the Middle Ages. Scholars and thinkers of the East are thinkers and scientists who have achieved great success in their field of culture, philosophy, science, art, religion, literature and other fields. They greatly influenced the development in the field of art and culture and helped to enrich it further through their ideas and achievements in their time. This article pays tribute to them and highlights the significance of their ideas and achievements in their time and in the development of art and culture that continues today.

**Key words:** Eastern scholars, thinker, art and culture, scientific research, philosophy and creativity, human culture.

IX-XII asrlarda jahon sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyoti davomida birinchi bo'lib Sharq mo'jizasi ro'y berdi. Huddi shu davrda qadimgi Sharq mintaqasiga mansub Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo hududlari insoniyat sivilizatsiyasining ilk sarchashmalari sifatida shakllandi. Bu mavzu, O'rta Asrlar sharq allomalari va mutafakkirlari tomonidan rivoj topayotgan san'at va madaniyatning ahamiyatli jihatni haqida munosib muloqot qilishimizga yordam beradi. Sharq allomalari va mutafakkirlari, o'z doirasida uning rivojlanishiga katta ta'sir qo'ymoqda va san'atning, madaniyatning yanada ilg'or rivojlanishiga olib kelmoqda. Sharq allomalari va mutafakkirlari, o'z davrlarida san'at va madaniyatning rivojlanishini ta'lim berish, tarixni o'rganish, ijodiylikni oshirish va yangi g'oyalar tufayli madaniy hayotni o'zgartirishni boshladilar. Ularning izohlarini, maqolalarni, dasturlarni va adabiyotlarni o'rganish o'z-oziga xos usullarini yaratdi. Bu esa, o'rtacha asrlar boyicha san'at va madaniyatning yangi bosqichga olib kelishiga olib kelmoqda.

Sharq allomalari va mutafakkirlari, o'z doirasida madaniyat, falsafa, ilm-fan, san'at, din, adabiyot va boshqa sohalarda yirik e'tibor bilan ishslashdi. Ularning asarlarida g'oya, tushuncha va fikr yuksak qiymatga ega bo'ldi. Masalan, Ibn Sino (Avitsenna) tibbiyat sohasida katta muvaffaqiyat qozonib, uning asarlarida o'z ma'lumoti va o'zg'orishlari, tibbiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

San'at sohasida Sharq allomalari va mutafakkirlari ham yirik o'rinni tutdilar. Ona tili, adabiyot, arxitektura va resmini san'atlari rivojlanib, ularga xos adabiy usullar, rivojlanishning markazi bo'lib chiqdi. San'at madaniyatning barcha sohalari bilan integratsiya qilindi va umumiyligi rivojlanishni ta'minladi. Sharq allomalari va mutafakkirlari, o'z doirasida boshqaruv usullari, ma'rifatning doiralarini kengaytirish, ilm-fan sohasidagi yangiliklarni o'rganish va ularga qo'ng'iroq qilish bo'yicha ko'plab yangiliklar kiritdilar. Bu esa umumiyligi ravishda san'at va madaniyatning ilg'or rivojlanishiga olib kelmoqda.

O'rta Asrlar davrida sharq allomalari va mutafakkirlari o'z mehnatlarini davlat xizmatiga qo'ydilar va shuningdek, o'z davrlari va kelajak poklashuvlarini o'rganishga intilishdi. Ularning ilmiy, falsafiy va ijodiy yig'ilishlari madaniyat tarixida ahamiyatli daraja egalladi.

Bu jarayonda ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan, Sharqu g'arbni tutashtirgan, o'zaro madaniyat, dinu e'tiqod, urf-odat, udumu an'analar almashinuvini ta'minlagan Buyuk ipak yo'lining o'rni katta bo'ldi. Ko'xna Xitoy yurtidan boshlangan bu yo'l avvalo Sharq xalqlarini bir-biri bilan bog'lagan, ularning iqtisodiy, savdo-sotiq, madaniy-ma'naviy aloqalarini rivojlanishi, turmush tarzini boyishida sezilarli turtki bo'ldi. Sharq xalqlari, elatlarining tili, urf-odatlari, musiqasi, to'yu ma'rakalari, diniy rasm-rusumlaridagi o'xshashlik jihatlarining mavjudligi ham buni yaqqol isbot etadi.

Shuningdek, VII asrdan boshlab arab dunyosida islom bayrog'i ostida vujudga kelgan xalifalik davlati qisqa tarixiy davr ichida ko'pgina hududlarni egallab ularda nisbatan yagona iqtisodiy va madaniy-ma'naviy makon yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Bunday hollar Sharq Uyg'onish jarayoniga va ayniqsa arab dunyosi bilan tutashgan Markaziy Osiyo hududlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

IX-XII asrlar davomida xalifalik tasarrufidagi mamlakatlarda islomiy hamda dunyoviy madaniyatning yonma-yon rivojlanishiga keng yo'l ochildiki, bu hol oxir-oqibatda Sharq dunyosini ulkan o'zgarishlarga olib keldi.

Bu jarayonlarning kuchayishiga shu yurtlar hukmdorlarining o'z davrining donishmand, bilimdon, ilmparvar siymolari sifatida adolat, qonun ustuvorligiga amal qilib faoliyat yuritganligi ham ma'lum ma'noda turtki bergan. Buni xalifalik hukmdorlari sanalgan Xorun ar-Rashid, Ma'mun yoxud ona yurtimiz ma'rifatparvar hukmdorlari: Nasr, Ismoil Somoniylar, Mahmud G'aznaviy, Malikshox, Nizomulmulk, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo va boshqalar timsolida aniq-ravshan ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, Sharqda, aynan O'rta Osiyo zaminida yuz bergan Uyg'onish jarayoni xususan dunyoviy fanlar rivojida alog'ida yuksalish bosqichi bo'ldi. Bu borada ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida turli tarixiy davrlarda faoliyat ko'rsatgan «Ilm uylari» - Bag'doddagi (819-833) «Bayt ul-hikmat» (Bag'dod akademiyasi), Xorazm poytaxti Urganchdagi «Ma'mun akademiyasi», shuningdek «Ulug'bek akademiyasi» va boshqa ko'plab yuksak ilm dargohlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Uyg'onish davri o'z yuksak aql-zakovati, salohiyati, izlanishlari bilan fanning ko'plab sohalarida muhim kashfiyotlar o'ilgan qanchalab buyuk daholarni yetishtirib berdi. Ular jahon fanining tibbiyot, falakiyat, matematika, jug'rofiya, tarix, geologiya, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya va boshqa yo'naliшlarining tamal toshini yaratdilar. Bu muqaddas zamindan yetishib chiqqan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'ony, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Abu Abdullo Xorazmiy, Mahmud az-Zamahshariy, Burhoniddin Marg'inoniy, Nizomulmulk, Kaffol ash-Shoshiy, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa buyuk siymolar nomini haqli ravishda ehtirom bilan tilga olamiz. Milliy mustaqilligimiz sharofati tufayli ularning boy ilmiy merosi sarchashmalaridan tag'inda mo'l-ko'l baxramand bo'la boshladik. «Istiqlol sharofati bilan, - degan edi Islom Karimov, - ma'naviyat buloqlarining ko'zi ochildi, biz bu buloqning zilol suvlaridan bahramand bo'la boshladik. Sho'ro davrida unutilgan qadriyatlarimiz, nomi qoralangan bobokalonlarimizning durdona so'zlarini biz obi kavsardek ko'zimizga surtmoqdamiz. O'ylaymanki, biz nimaga erishgan bo'lsak, ana shu savobli ishlarimiz uchun Allohnning bizga in'om etgan marhamatidandir». [2] Allomalarimizning qomusiy bilimdonliklari shundaki, ularning har biri bir emas, balki ko'plab ilm-fan yo'naliшlarida ulkan kashfiyotlar o'ildilar. Bu jihatdan Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Far'oniy (797-865), Abu Nasr Forobiy (873-950) larning fandagi jasoratlari ibratlidir. Agar al-Xorazmiy matematikaga oid «Hisob aljabr va al-Muqobala», «Hind hisobi haqida kitob», «Astronomik jadvallar», «quyosh soatlari haqida risola» asarlari bilan matematika (algoritm) va astronomiya fanlarining tamal toshini qo'ygan bo'lsa, uning «Kitob surat

al-arz» asari arab geografiyasi fanining tom ma'noda yaratilishiga negiz bo'lib xizmat qildi. Olimning «Kitob at-tarix»i esa Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo xalqlari tarixining VIII-IX asrlari davrini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Ma'lumki arablar Iroq, Misr va Suriyani istilo qilgunga qadar yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VII asrdan boshlab esa arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo'llanilgan edi. Al-Xorazmiy Hindistonda kashf qilingan o'n raqamidan iborat sanoq tizimini o'rgandi, soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon qildi. Al-Xorazmiy «Arifmetika» si bilan birga hind raqamlari ham arab dunyosiga kirib keladi. XII asrda Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi. Arab raqami hanuz jahonda shunday deb yuritiladi. Uni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy ekani Abu Rayxon Beruniyning «Hindiston» asarida ham aytib o'tilgan. U o'z davridagi Bag'dod ilmiy Akademiyasi faoliyatiga rahbarlik qilgan, bu esa uning nufuzining ko'tarilishiga katga ta'sir ko'rsatgan. Astronomiya, geografiya va boshqa fan sohalarida muhim kashfiyotlar o'ilgan Ahmad al-Farg'oniy nomi ham mangulikka daxldordir. Chunonchi, olimning «Astronomiya asoslari haqida kitob», «Al-Farg'oniy jadvallari», «Yetti iqlimni hisoblash haqida» singari asarlari allomaga astronomiya ilmida jahoni shuhrat keltirdi. U Yer sharining ilk bor xaritasini tuzgan birinchi buyuk geograf olim hamdir. U nafaqat Sharq dunyosida shuhrat qozonib qolmay, balki G'arb olimlari e'tirofiga ham sazovor bo'lgan. Shu bois u Yevropada «Alfraganus» nomi bilan mashhurdir. Bejiz yurtboshimiz Al-Farg'oniyi «...kishilik tarixidagi ilk Uyg'onish davrining eng zabardast va yorqin namoyandalaridan biri, o'z zamonasi fundamental fan asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho'qqilariga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi, butun ma'rifiy dunyo olimlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi»,[3] deb ta'rif etgan edi.

Tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga birdek katta hissa qo'shgan, geologiya, minerologiya, geodeziya, geografiya, farmakologiya fanlarining tamal toshini qo'yishga muvaffaq bo'lgan Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ham ilm-urfon osmonining porloq yulduzları sirasiga kiradi. Uning qalamiga mansub «Ma'sud qonuni», «Saydona», «Minerologiya», «Astronomiya kaliti», «quyosh kitobi» singari asarlari necha asrlar davomida turli yo'naliishlarda faoliyat yurituvchi dunyo olimlari uchun bitmas-tuganmas ilmiy xazina rolini o'tab keladi. Olimning chuqur ilmiy yirik fundamental asari - «Hindiston» to'g'risida so'z yuritgan akad. V.R.Rozen «Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q»,[4] deb baho beradi.

Beruniy zamondoshi, ko'xna Buxoro zaminidan yetishib chiqqan Abu Ali ibn Sino (980-1037) nomi tibbiyat ilmi bilan hamohang, tibbiyatni haqiqiy fan sifatida shakllanib o'z maqomiga ega bo'lishiga asos solgan buyuk olimdir. Zotan, uning 5 jildli «Kitob al-qonun fit- tib» («Tib qonunlari») asari aynan tibbiyatga oid benazir dasturulamal kashfiyotdir. Bu asarlar majmuini ko'zdan kechirar ekanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga, kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasidagi yuksak mahoratiga tan beramiz. Jumladan, «Al-qonun» ning ikkinchi kitobida 800ga yakin dori-darmonlarning xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste'mol

qilish usullari buning isboti bo'la oladi. Olimning falsafa va tabiiy fanlarga doir 4 qismdan «Kitob ash-shifo», “Donishnoma” asarlari ham mavjuddir. Ibn Sinoning tibbiyotdan tashqari ko'plab tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan faol shug'ullanligi, muhim yutuqlarga erishganligi ham ibrat bo'lidlidir.

O'rta Osiyo zamini juda qadim zamonlardan ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoj topgan makon hisoblanadi. Ayniqsa tarix, falsafa, mantiq, fiqh (huquqshunoslik) fanlari bunda muhim o'rinni tutadi. Bu xususda gap borganda falsafa fanida nom qozongan, Sharqda «Muallimi Soniy» («Ikkinch muallim», Arastudan keyin) nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy (873-950), fiqx-huquqshunoslik sohasida benazir allomalar: Nizomulmulk (1017-1092), Mahmud az-Zamahshariy (1075-1144), tarixnavis Muhammad Narshaxiy (899-959) xizmatlarini ta'kidlamoq lozim bo'ladi. Bunda Forobiyning falsafada o'z ilmiy maktabini yaratib, yunon falsafasi mohiyatini olib, tushuntirib, shu bilan birga o'zining sharqona falsafiy ta'limotini ko'plab asarlarida, aytaylik, «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Fozil odamlar shahri» va boshqalarda asoslab bergen bo'lsa, Nizomulmulk «Siyosatnoma»sida hukmdorlarning davlatni boshqarish, uni idora qilishga oid ko'plab qimmatbaho yo'l-yo'riqlar, dasturulamal ko'rsatmalar katta mahorat bilan qayd etilgan. Hatto Amir Temurdek buyuk davlat arbobi ham bu kitobga necha bor murojaat etganligi ma'lumdir.

Umuman IX-XII asrlarda yuz bergen Uyg'onish davrida Sharqda, xususan o'rta Osiyodan o'z yurtlari shonu sharafini yuksaklarga ko'tarib, betakror ilmiy kashfiyotlar, chinakam mo"jizalar yaratgan mashhur iste'dod sohiblari yetishib chiqdiki, ular jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shdilar hamda keyingi avlodlarga bitmas-tuganmas noyob boy meros qoldirdilar.

O'rta asrlarda Sharq allomalari va mutafakkirlari san'at va madaniyatning yanada rivojlanishiga o'z ta'sirini taqdim etgan. Ularning asosiy maqsadi, ilmiy tadqiqotlar, falsafa, ijodiylik va madaniyat sohasida yangiliklar va rivojlanishni oshirish bo'lgan. Bu yangiliklar, ularning yaratgan g'oyalari va fikrlari orqali san'at va madaniyatning yanada boyitilishiga xizmat qilgan. Bu masala ko'p tomondan o'rgatib berilishi kerak, chunki bu mutafakkirlarning fikrlari va yutuqlari o'z vaqtiga mos keladigan bo'lishi kerak.

O'rta Osiyo Uyg'onish davrining yirik me'moriy obidalari sirasiga Buxorodagi Ismoil Somoni maqbarasi (X asr), Samarcand yaqinidagi Tim qishlog'idagi Arab ota maqbarasi (977-978), Uzun (Surxondaryo) tumanidagi Xo'ja Naxshron maqbarasi (IX-X asr), Namozgoh, Marvdagi Sulton Sanjar (XI asr), O'zgandagi qoraxoniylar maqbarasi, G'azna yaqinidagi marmar qotishmalardan tiklangan g'aznaviylar yozgi saroyi, Buxorodagi Minorai Kalon (1127), Vobkent minorasi (1192), Jarqo'rg'on minoralari va boshqa ko'rakam me'morchilik inshoatlarini nisbat berish mumkin. Bu davrda me'moriy binolardan tashqari yo'nilgan g'isht va suvg'a chidamli qurilish qorishmalaridan turli-xil o'lchamli, g'oyat puxta ishlangan

inshootlar, suv omborlari - bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar qurilgan.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchli imoratlar qurilishi keng tarqalgan. Yakkasinch va qo'shsinchli binolar asosan yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilib, somon loylar yoki qumli loylar bilan suvalgan. Bunday qurilma imoratlar XII asrda ham shahar me'morchiligidagi asosiy o'rinni egallagan hamda zilzila silkinishlariga o'ta chidamli bo'lgan. Ajdodlarimizning Uyg'onish davri me'morchiligi sohasidagi bunyodkorliklari bugunga qadar ham saqlanib qolingan. Ushbu tarixiy ma'lumotlarni olimlarimiz Afrosyob, Varaxsha, Buxoro, Poykand va boshqa shaharlar xarobalari misolida ham tadqiq etadilar.

Sharqiylarda IX-XII asrlarda me'morchilik bilan birga tasviriy san'at, naqqoshlik, sopol ishslash va ganch san'ati ham ancha rivoj topib borgan. Imoratlarni o'ymakor ustun va to'sinlar bilan, devorlarni esa bo'yoqli yoki ganchkorlik naqshlari bilan bezash keng tarqalgan. Bunga misol qilib, Zarafshonning yuqori oqimidagi Oburdom degan manzilda X asrda barpo etilgan naqshinkor bino namunasini ko'rsatish mumkin. Inshootda o'ziga xos yangilik, go'zallik, ya'ni mahalliy an'ana, badiiy shakl ko'zga yaqqol tashlanadi. Shuningdek, XI-XII asrlarga tegishli Samarqand bilan Buxoro oralig'ida bunyod etilgan Raboti Malik karvonsaroyi peshtoqiga ishlangan ganch o'ymakorligi ham tahsinga loyiqidir. Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, misgarlik va zargarlikning rivojlanishiga ham turtki bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar ushbu sohalarda rivoj topgan markazga aylandi. Bu davrda ishlangan sopol buyumlar nihoyatda chidamli bo'lib, shahar va qishloq aholisining kundalik hayotiga kirib borgan, shuningdek, bu mahsulotlar chet mamlakatlariga ham chiqarilgan. Kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayoni esa butun boshli ishlab chiqarish jarayonlarini o'ziga qamrab olgan. Shu bilan birga bu davrda kumush, mis, bronzadan naqshinkor badiiy san'at buyumlari, chiroqli va bejirim idish-tovoqlar, qadahlar yasash ham rasm bo'lgan va ularning ko'rinishlari san'atkarona tarzda ustamonlik bilan bezatilgan. Bu sohada Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Naxshob, Kesh shaharlarining o'ziga xos maxsus maktablari faoliyat ko'rsatgan. Bunday jarayonlarning rivojlanishi xattotlik san'atining ham keng yoyilishiga bois bo'ldi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo'lyozma kitoblardan nusxalar hattotlar tomonidan qo'lida ko'chirilishi sabab xattotlik san'ati ancha rivoj topdi. Usta xattotlar va husnixat egalari o'z san'atlarini kitoblar bezash, masjid, madrasa xonaqolarning peshtoqlari, gumbazlari, eshiklari va devor ustunlariga har xil oyatlar yozish, saroylarda xonlar, amirlar, sultonlar va hokimlar sha'niga madhiyalar bitish kabi ishlarda namoyon etganlar, ularning mehnatlari esa juda qadrlangan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Buyuk allomalarimiz /Abduhalimov B. Islomov Z. va b.; H. S. Karomatov tahriri ostida. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002. – 78 b.
2. Muhamedov N. Shosh vohasi olimlarining ilmiy-ma'naviy merosi. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. – 164 b.
3. Samarqandlik allomalar / Sh.Ziyodov, Q.Mahmudov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2019.
4. Abu Rayhon al-Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – T. I. / Arabchadan A.Rasulov tarjimasi. Mas'ul muharrir I.Abdullayev. – T.: “Fan”, 1968. – 488 b.